

Termiz shahar Xalq qabulxonasida fuqarolar uchun navbatdagi sayyor qabul o'tkazildi.



Termiz shahar Xalq qabulxonasida fuqarolar uchun navbatdagi sayyor qabul o'tkazildi. Bugun, 6 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Termiz shahar xalq qabulxonasi mudiri va Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdievlar birgalikda sayyor qabul o'tkazdi. Unda hokim o'rinbosarlari, mutasaddi korxona va tashkilot rahbarlari ishtirok etishdi. Qabulda fuqarolarning subsidiya asosida imtiyozli uy-joylardan olish masalasi, ishga joylashish, sog'liqni saqlash va kommunal sohaga oid murojaatlari tinglanib, ularni hal etish choralari ko'rildi. Sayyor qabulda keltirilgan turli muammolarning bir qismi joyida hal etildi. Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolardan ikki nafariga moddiy yordam ajratildi. Vaqt talab etadigan murojaatlar bo'yicha muddat belgilanib, ijrosi qat'iy nazoratga olindi.